

MATN YARATISHDA LINGVOMADANIY BIRLIKLARDAN FOYDALANISHNING LINGVISTIK ASOSI (INGLIZ TILI VA O‘ZBEK TILI MISOLIDA)

Tursunova Ma‘mura Fayzullojeva

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti
Filologiya fakulteti Xorijiy til yo‘nalishi magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ingliz hamda o‘zbek lingvokulturologik, qiyosiy, kognitiv hamda amaliy lingvokulturologiya masalalariga izoh beriladi. Shuningdek, til va madaniyat, madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi, aloqasi hamda o‘zaro ta’siri muammolari madaniy hodisa va u tilshunoslikda o‘ziga xos ilmiy ahamiyatga ega. Shu sababli, lingvomadaniy tahlil fanlararo zamonaviy tadqiqotlarda muhim o‘rin egallashi tabiiy holdir. Shuni takidlab o‘tish lozimki, til nafaqat aloqa vositasi, balki millatning madaniy kodlari ichida eng muhimlaridan biri sifatida qaraladi.

Kalit so‘zlar: lingvomadaniy tahlil, lingvokulturologiya, Lingvomadaniy paradigma, Lingvomadaniy konsept, as false as fox.

ABSTRACT

This article explains the issues of English and Uzbek linguo-cultural, comparative, cognitive and practical linguo-cultural studies. Also, the problems of language and culture, interdependence, communication and interaction of culture are cultural phenomena and have a unique scientific significance in linguistics. Therefore, it is natural that linguistic and cultural analysis occupies an important place in modern interdisciplinary research. It should be noted that language is considered not only as a means of communication, but also as one of the most important cultural codes of the nation.

Key words: linguistic and cultural analysis, linguistic and cultural studies, linguistic and cultural paradigm, linguistic and cultural concept, as false as fox.

Til va madaniyatning lingvokultural mazmuni hodisasini atrofda tilshunoslik omilining mavjud bo‘lish shakllaridan biri sifatida tushunish istagi lingvokulturologik yo‘nalishning shakllanishi va rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Uning lingvokultural makoni o‘ziga xos talqinga ega etib namoyon qilinadi va u nafaqat milliy, balki butun jahon madaniyatining torusi hisoblanadi.

Ingliz tili misollarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy nutqning barcha farqlari ingliz va rus madaniyatlari, bu sohadagi kontseptualizatsiya strategiyasi farqlardan ko'ra o'xshashlik bilan tavsiflanadi. Aynan lingvokulturologik yondashuv matnni madaniy va lingvistik hodisa sifatida talqin qilishga imkon beradi, bunda uni yaratgan xalqning milliy madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari eng aniq ochib beriladi.

Ingliz adabiyotida modallik (imagery) badiiy vositasi ham mavjud bo'lib, Kinestetik tasviriy modallik harakatni qanday amalga oshirishni aks ettirish bilan belgilanadi, kuch va harakat kabi jihatlar orqali ifodalanadi. Masalan: "Haligi yigit ming tanga berib, xo'rozni olibdi, oliboq maydonga tashlabdi. Kal xo'roz qaqolab, hezlanib, dam-badam maydondagi raqibiga qarab-qarab, yerdan don cho'qigandek bo'lib boraveribdi". Yoki : "The jeweller gave the watch and chain. The bird took it in one foot, the shoes in the other, and, after having repeated the song, flew away to where three millers were picking a millstone. The bird perched on a tree and sang..."

Ingliz va o'zbek tillaridagi mavjud o'xshatishlarni qiyosiy tahlil qilganda, o'xshatish etaloni sifatida ko'pincha hayvon yoki jonivorlarni bildiruvchi so'zlardan foydalanilganligini ko'rish mumkin. Masalan, o'zbek tilida "qo'yday yuvosh", "musichaday beozor" o'xshatish etalonlari mavjud bo'lib, bu o'xshatishlar orqali o'zbek mentalitetiga xos jihat, ya'ni qadimdan qo'yning yuvosh hayvon, musichaning beozor, zararsiz qush ekanligi ifodalanmoqda. Ingliz tilida esa beozorlik timsoli sifatida ko'pincha kabutar tasvirlanadi: "As harmless as a dove". Ingliz va o'zbek tillarida sinonimlik xosil qiladigan quyidagi o'xshatishlarni ham xuddi shunday qiyosiy tahlil qilish mumkin: "As hungry as a bear" iborasi o'zbek tilidagi "Bo'riday och" o'xshatish etaloniga teng keladi. "Och" sozining bo'ri bilan birga ishlatilishi o'zbek lingvokulturologiyasiga xos bo'lib, ozbek xalq ertaklaridagi och bo'ri ko'z oldimizga keladi. Jumladan, mif, ertak, doston va badiiy asar qahramonlari ishtirok etgan muayyan o'xshatishlar mavjud bolib, ular orqali o'sha xalq milliy madaniyatini chuqur anglab yetish mumkin. Masalan, o'zbek tilida "baquvvat, pahlavon, gavdali, juda ham kuchli, bahodir" ma'nosida ishlatiladigan "Alpomishday" o'xshatish etaloni ingliz tilidagi "jasur va botir" ma'nosida qo'llanuvchi "as brave as Robin Hood" o'xshatish birligi bilan sinonimlik xosil qiladi. Ingliz va o'zbek tillarida uchraydigan o'xshatishlar orasida leksik component tuzilmasi jihatidan bir xil yoki turli xil bo'lgan turlarni uchratish mumkin. Masalan, ingliz tilidagi "As red as a cherry" iborasida ishlatilayotgan cherry (gilos) so'zi o'zbek lingvokulturologiyasiga ham xos bo'lib, qiz bolaning lablarini tasvirlashda foydalaniladi. Shuningdek, ingliz tilidagi "as sly as a fox" iborasi o'zbek tilidagi "tulkiday ayyor" o'xshatishiga sinonim bo'ladi.

Har xil lingvomadaniyatlardagi turg'un o'xshatishlarni qiyoslash insonning xarakteri va xatti-harakati bilan bog'liq bo'lgan o'xshatishlarning etaloni sifatida

hayvon va jonivorlarni bildiruvchi soʻzlardan koʻproq foydalanilganini koʻrsatadi. Masalan, qiyoslanilgan tillarning aksariyatida tulki ayyorlik, aldoqchilik, yolgʻonchilik ramzi, etaloni sifatida faol ishlatiladi: *tulkiday ayyor, as false as fox* (inglizcha). Mutaxassislarning taʼkidlashicha, gʻarb va slavyan lingvomadaniyatlarida, xususan, ingliz va rus tillarida *as false as fox, хитрый как лиса* turgʻun oʻxshatishlari mifopoetik manbalarga asoslanadi, chunki qadimgi tasavvurlarga koʻra, tulki jodugar hisoblangan, unda yoʻqolish, koʻrinmaydigan boʻlib qolish qobiliyati mavjud boʻlgan.

Lingvomadaniy konsept – etnomadaniy xususiyatga ega boʻlgan va borliq haqidagi funksional ahamiyatga molik informatsiyani uzatadigan madaniyatning asosiy birligidir. U madaniy universalialarni ifodalaydi. Lingvomadaniy konsept tafakkurda mavjud boʻladi, u oʻzida kognitiv-ratsional va emotsional-psixologik mazmunni biriktiradi. Lingvomadaniy konsept barcha til egalari uchun dunyoqarash modeli vazifasini oʻtaydi. Lingvomadaniy konsept milliy xarakterning shakllanishiga taʼsir koʻrsatuvchi madaniyat vositasi hisoblanadi.

Lingvomadaniy paradigma – bu dunyoqarashning etnik, ijtimoiy, tarixiy, ilmiy va h.k. Oʻzaro aloqadorlikdagi kategoriyalarini aks ettiradigan til shakllarining majmuyi.

Lingvomamlakatshunoslik – tilda oʻz aksini topgan milliy realiyalarni oʻrganadi. Milliy realiyalar muqobilsiz til birliklari boʻlib, ular mazkur madaniyatga xos boʻlgan hodisalarni ifodalaydi.

Lingvomadaniyatlarining aksariyatida turgʻun oʻxshatishlarni obraz va uning mazmuni jihatidan bir-biriga muqobilligi, muqoyasa obyektlarining oʻxshashligiga guvoh boʻlamiz. Masalan, “befahmlik, besoʻnaqaylik, qoʻpollik” *ayiqday* (oʻzbekcha), “kuchli, qoʻrqmas”, “mardlik, jasorat” *arston kabi* (oʻzbekcha), “semirmoq”, “koʻp ovqat yemoq” *choʻchqaday* (oʻzbekcha), *As fat as a pig* (inglizcha); “koʻp ovqat yemoq” *molday* (oʻzbekcha), va h.k. etalonlar vositasida ifodalanadi.

Lingvomadaniyatlarining aksariyatida ayni oʻxshatish etalonlari turli belgilarning oʻlchovi sifatida qoʻllanilishi mumkin: oʻzbek tilida *qoʻydek* “yuvoshlik”, oʻzbek tilida *boʻriday* “dovyurak, mard”, “gʻajimoq, tish qayramoq”, oʻzbek tilida *ilonday* “chaqmoq, zahar sochmoq”, “sovuq”, “xoin, yoqimsiz”, rus tilida *как змея* “badjahl”;

Baʼzi lingvomadaniyatlar uchun meʼyoriy hisoblangan oʻxshatish etalonlari boshqa xalqlarning lisoniy mental anʼanalari uchun begona boʻlishi mumkin. Masalan, oʻzbeklarda xushbichim qomatli ayollarga *sarvday*, turklarda gavdali ayollarga *at gibi* oʻxshatishi qoʻllaniladi. Hindlarda sohibjamol qizning yurishi filning ulugʻvor va mahobatli qadam tashlashiga muqoyasa qilinadi. Yoki hind ayoli sigirga qiyoslanganda u xursand boʻladi, chunki hind xalqining idrokida sigir goʻzallik timsoli sifatida gavdalanadi. Shuningdek, Hindistonda sigir muqaddas hayvon sanaladi.

O‘zbek lingvomadaniyati uchun ayollarning yuzini oyga, olmaga, ba‘zan kulchaga, inglizlarda olchaga, atirgulga (as red as a cherry /rose/), qiyoslash me‘yor hol hisoblanadi.

Ayni tushuncha turli lingvomadaniyatlarda o‘zgacha ifoda vositalari, ya‘ni boshqacha o‘xshatish etalonlari vositasida aks ettirilishi mumkin. Masalan, baquvvat kishilarni o‘zbeklar filga, inglizlar otga muqoyasa qilishadi: *filday baquvvat, strong as a horse*.

Dunyoni obrazli qiyoslash maqsadida istifoda etiladigan ba‘zi o‘xshatish etalonlari boshqa lingvomadaniyatlarda frazeologizm yoki metafora ko‘rinishida namoyon bo‘lishi ham mumkin. Masalan, o‘zbek madaniyatida “imillamoq, sudralmoq” ma‘nosida qo‘llaniladigan *toshbaqaday* etaloni frazeologizmga muqobil bo‘ladi. O‘zbek tilida “semirmoq”, “ko‘p ovqat yemoq”ni anglatgan *cho‘chqaday* o‘xshatish etaloni koreys tilida *tweji* (cho‘chqa) ko‘rinishida metaforaga aylanganini ko‘rish mumkin.

Har bir lingvomadaniyatda shu xalqning mentalitetini, uning o‘ziga xos milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi turg‘un o‘xshatishlar mavjud bo‘ladi. Masalan, “o‘zbek tilidagi *musichaday beozor (odam)* o‘xshatishini boshqa tillarda uchratish qiyin. *Musichaday* o‘xshatish etalonida milliy-madaniy konnotatsiya mavjud, unda “beozorlik” belgisining o‘zbekka xos ta‘kidi yaqqol o‘z ifodasini topgan. Musichaga xos yumshoq tabiat va harakat o‘zbek idrokida ijobiy talqin topishidan tashqari, bu mushfiq qush haqidagi islomiy rivoyat ham musichaday etalonining an‘anaga kirishiga ta‘sir etgani ehtimoldan holi emas. Ana shu tariqa *musichaday beozor* turg‘un o‘xshatishi beozorlikning o‘zbekcha o‘lchovi sifatida tamoman milliy obraz maqomini olgan”. Lekin hamma lingvomadaniyatlarda ham shunday emas. Masalan, ingliz tilida “beozorlik” timsoli sifatida “kabutar” qabul qilinganini kuzatish mumkin: *As harmless as a dove* (*Musichaday beozor*).

O‘xshatishlar har bir xalqning iqlimi, fauna va florasi, joylashgan hududining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ham yaratiladi. Masalan, *So‘fining tani shu topda Arabiston tog‘larining saratondagi toshlariday qizib yonardi* (Cho‘lpon. Kecha va kunduz). Cho‘lpon tomonidan yaratilgan mazkur o‘xshatishda Arabiston iqlimining juda issiqligidan kelib chiqqan holda, Razzoq so‘fining ruhiy holati ifodalangan.

Iqlim sharoitiga ko‘ra qor bilan tez-tez to‘qnashmaydigan Arabiston, Afrika, Misr Arab Respublikasining lingvomadaniyatlarida “qordek oppoq sochlar” o‘xshatishi uchramaydi. Chunonchi, qorning nimaligini ko‘z oldiga keltira olmagan mazkur madaniyatlarda ijobiy baholanayotgan biror narsaning “qor”ga qiyolanishi zaruriy obrazli ifodani yarata olmaydi. Shuning uchun bunday o‘xshatishni qayd etilgan

mamlakatlarning tillariga tarjima qilganda, “sutdek oppoq sochlar” deb berish maqsadga muvofiqdir.

Yoki “ko’pgina oq rangli narsalarning rus tilidagi singari o‘zbek tilida ham obrazli tarzda “qor”ga muqoyasa etilishi nutqiy an’anaga aylangan bo‘lishiga qaramasdan, ijobiy ta’riflanayotgan oppoq tishlar “qor”ga emas, balki qimmatbaho “sadaf”ga qiyos etiladi: *Нет, Хорь в город уехал, - отвечал парень, улыбаясь и показывая ряд белых, как снег, зубов* – 30, 28 // *Yo‘q, Xor shaharga ketgan, - dedi yigit kulimsirab, sadafdek oppoq tishlarini ko‘rsatib* – O‘X, 15”.

O‘zbek she’riyatida *tunday* o‘xshatishidan sochning qoraligini ifodalash uchun keng foydalaniladi:

*Kel endi tashlama, qo‘yma
Bu tunning qo‘ynida yolg‘iz.
Hijronni boshimga yoyma,
Ey tunde sochi qora qiz (Cho‘lpon. Tun).*

Shotland lingvomadaniyatida sochning qoraligi zog‘(qarg‘a)ga qiyoslanadi. Binobarin, Shotlandiya shimoliy o‘lka bo‘lib, u yerda yilning deyarli barcha faslida zog‘larni uchratish mumkin. Mazkur o‘xshatishni shotlandiyalik shoir Robert Byornsnning “John Anderson” she’rida uchratish mumkin. B.Xolbekova “John Anderson” she’rining rus va qozoq tillaridagi tarjimalarini quyidagicha tahlil qiladi:

*John Anderson my jo, John,
When we were first acquaint,
Your locks were like the raven,
Your bonie brow was brent.*

Mazmuni: “Qadrdonim, mening do‘stginam Jon Anderson, birinchi bor sen bilan ko‘rishganimizda, sochlaring zog‘(qarg‘a) rangiga o‘xshar (ya’ni qop-qora edi, yosh eding), barq urib do‘ng peshonangni bezab turardi...”. Ingliz tilida agar soch qarg‘aga o‘xshatilsa, ingliz o‘quvchisi faqat qarg‘a(zog‘)ning o‘zini emas, balki uning rangini tushunadi. Tadqiqotchi *Your locks were like the raven, Your bonie brow was brent* misrasining rus tarjimoni S.Marshak tomonidan: *Густой крутой твой локон, Был черен точно смоль* tarzida tarjima qilinib, ingliz tilida “qarg‘a”ga qiyoslangan soch “mum” (saqich)ga aylanganligini, qozoq tarjimoni Qubondiq Shang‘itboyev tomonidan esa: *Самый шаикн тогилген, Қара еди зой комірден* kabi qozoqchalashtirilishi natijasida ruschadagi “mum” (saqich) sochlari qozoqchada “ko‘mirdan ham qora”ga aylanganini aytadi.

Masalan, o‘zbek lingvomadaniyatida ayollarning yuzini oyga, olmaga, ba’zan kulchaga o‘xshatishadi. Inglizlarda esa olchaga, atirgulga (as red as a cherry /rose/) qiyoslash me’yor hol hisoblanadi. Bundan tashqari, “cherry”, “rose” leksemalari narsa-buyumlarni ham qizilligini tasvirlashda ko‘p qo‘llaniladigan o‘xshatish etaloni

hisoblanadi. Masalan: The car was as red as a cherry after its new paint job. The morning sunrise was as red as a rose. Shuningdek, baquvvat kishilarni o‘zbeklar filga, inglizlar otga va ho‘kizga muqoyasa qilishadi: filday baquvvat, as strong as a horse/an ox. Yoki, o‘zbeklar tinimsiz ishlaydigan, mehnat qiladigan kishilarni chumoliga (chumoliday), inglizlar esa ariga va itga o‘xshatishadi (as busy as a bee, working like a dog). Masalan: The man was as strong as an ox and easily helped us to move the sofa. She always works like a dog. Umuman, o‘xshatishlar har bir xalqning lingvomadaniy boyligi bo‘lib, ular milliy dunyoqarash, dunyodagi hodisalarni milliy tasavvurlarga ko‘ra taqqoslash, qiyoslash natijasida shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulloyeva, K. (2021). INGLIZ HAMDA OZBEK ERTAKLARINING LINGVOMADANIY HAMDA STILISTIK TAHLILI. *Scientific progress*, 2(5), 377-381.
2. Jumayeva, B. (2020). Ingliz va o‘zbek tiliga xos lisoniy birliklarda qo‘llanilgan o‘xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlari. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 1(1), 2-6.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Va O‘rta Maxsus Ta’lim Vazirligi Termiz Davlat Universiteti, Lingvokulturologiya fanidan o‘q u v – u s l u b i y m a j m u a. Termiz – 2019.